

REKTOR QUTLOVI

SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT GAROVI

Ibrohim G'ULOMOV,
ISFT rektori

Qadimgi Xitoy donishmandlari: "Agar odam bolasiga baliq bersang, u kun bo'yi to'q yuradi, agar unga baliq tutishni o'rgatsang, u butun umr to'q bo'ladi", – deyishgan. Oddiygina tuyulgan bu gapda nechog'li katta hikmat borligini hammamiz yaxshi bilamiz. Ta'lim va tarbiya masalasi xalqimiz uchun hamisha dolzarb bo'lib kelganligi hech kimga sir emas. Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslash kifoya. Bilimsizlik, jaholat millatni jar yoqasiga yetaklashi mumkinligini bundan bir asr muqaddam jadid bobolarimiz yaxshi anglagan. Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilda e'lon qilingan "Ehtiyoji millat" maqolasida 30 yil oldin Samarqandning birgina Yomini mahallasida 300 ta olachabof ishchi ishlaganligini, hozirda ulardan atigi 30 nafari qolganini va o'n yildan keyin ular tugab ketishi havfi borligini kuyunchaklik bilan yozgan. "Bu ketishning oxiri yamondur, o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniylar meros qolsun", – deb xulosa qiladi Behbudiy.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va sifatli ta'limni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda, iqtidorli yoshlarning nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari

faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta'limda raqobat muhitini yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Bugun butun dunyoda kechayotgan globalisasi tendensiyasi davlatlarning alohida, yakka holda rivojlana olmasligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Global dunyoning har bir unsuri o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etadi. Shu singari fanlar ham bir-birining yutuqlaridan oziqlanadi. Bitta fan doirasidagi yutuq, erishilgan natija boshqa sohalarni yangilik qilishga undaydi, taraqqiyotga zamin hozirlaydi. Aynan fanlararo hamkorlik yangi ufqlarga yetaklaydi, yangi marralarni zabt etish imkonini beradi. Bunda zamonaviy texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir insonda zamonaviy axborot texnologiyalarga oid bilim, ko'nikma va layoqatni shakllantirish fundamental ahamiyat kasb etadi. Ta'limni axborotlashtirish texnologik va ijtimoiy bilimlarni uzatish jarayonini tezlashtirish, o'qitish sifatini oshirish, insonning turli ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalarni ishlab chiqish, ta'lim tizimida bilim, ko'nikma va malakalarning to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash, mazkur yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, munozara, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash, bu yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganish kerakligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, bugungi konferensiyamizni "Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishda fanlararo yondashuvning o'rne" deb nomlaganmiz. O'ylaymanki, har biringiz bugungi anjumandan o'zingiz uchun foydali narsa olasiz, kelgusi ilmiy faoliyatingiz uchun motivatsiya uyg'onadi. Bugungi anjumanimizni ochiq deb e'lon qilaman va konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman!